



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 10-avgust

397-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 6-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ixtisoslashtirilgan psixiatriya va narkologiya xizmatini ko‘rsatishning yagona tashkiliy-uslubiy vertikal boshqaruv tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyuldagi 447-son qarori ijrosi to‘g‘risida” 358-6-0-Q/24–sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 6-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ixtisoslashtirilgan psixiatriya va narkologiya xizmatini ko‘rsatishning yagona tashkiliy-uslubiy vertikal boshqaruv tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyuldagi 447-son qarori ijrosi to‘g‘risida” 358-6-0-Q/24–sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 6-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ixtisoslashtirilgan psixiatriya va narkologiya xizmatini ko‘rsatishning yagona tashkiliy-uslubiy vertikal boshqaruv tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2024-yil 24-iyuldagi 447-son qarori ijrosi to‘g‘risida” 358-6-0-Q/24–sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi 447-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar psixiatriya va narkologiya xizmati tibbiyot muassasalarini Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining hududiy filiallari sifatida;

Qashqadaryo viloyati 1-son ruhiy asab kasalliklari dispanserini unga Qashqadaryo viloyati ruhiy kasalliklar shifoxonasini qo‘shib yuborish orqali Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining psixiatriya xizmati bo‘yicha Qashqadaryo viloyati filiali sifatida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi; Bunda Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining psixiatriya xizmati bo‘yicha Qashqadaryo viloyati

filioli Qashqadaryo viloyati 1-son ruhiy asab kasalliklari dispanseri va Qashqadaryo viloyati ruhiy kasalliklar shifoxonasining huquqlari hamda majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanishi;

Quyidagilar:

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tizimidagi psixiatriya va narkologiya xizmatlarining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining psixiatriya xizmati bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiallarini tashkil etish ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining narkologiya xizmati bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiallarini tashkil etish ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Quyidagilar:

aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish;

birlamchi bo'g'in tibbiyot muassasalariga ruhiy salomatlikni muhofaza qilish xizmatlarini integratsiya qilish orqali ruhiy holat buzilishini erta aniqlash va davolash choralarini ko'rish;

birlamchi bo'g'in tibbiyot muassasalari shifokorlarining ruhiy holati buzilgan shaxslarni klinik baholash, davolash hamda kuzatib borish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish va bilimlarini oshirish;

ruhiy holati buzilgan shaxslarni dori vositalari bilan ehtiyojga ko'ra to'liq ta'minlash choralarini ko'rish;

aholi, ayniqsa, bolalar va o'smir yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash;

tibbiyot xodimlarining kasbiy darajasini, shu jumladan mutaxassislarining xorijiy yetakchi tibbiyot ta'lim muassasalarida hamda klinikalarida o'z ixtisosligi bo'yicha kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolashning zamonaviy usullari bo'yicha stajirovkalarini tashkil etish orqali doimiy ravishda oshirib borish va takomillashtirish;

ixtisosligi bo'yicha kasalliklarning oldini olish, ularga tashxis qo'yish va davolash bo'yicha ilg'or usullar va texnologiyalarni ishlab chiqishga hamda tibbiyot amaliyotiga joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;

xorijiy yetakchi tibbiyot muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash;

tuman (shahar) tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini joriy etish, sayyor maslahatlar (konsultatsiyalar) berish, mahorat darslarini muntazam ravishda o'tkazib borish Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filiallarining asosiy vazifalari etib belgilanligi; Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi psixiatriya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013-yil 25-iyuldagi 207-

son qarorining 1-bandi va 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov